

MIRAK MUHAMMAD TOSHKANDIY NAQSHBANDIYNING “NAVODIRUL AMSOL” ASARI: MATNIY-QIYOSIY TAHLIL VA MANBASHUNOSLIK MASALALARI

Djurabayev Yusufjon Isroiljanovich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti

2-bosqich tayanch doktoranti (PhD)

pointnuqta@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XVI asr o'zbek mumtoz adabiyotining namoyandasi Mirak Muhammad Naqshbandiy Toshkandiyning “Navodirul amsol” asari manbashunoslik va matnshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida asarning Turkiya fondlarida saqlanayotgan “Esad Efendi”, “Murad Buhari”, “Halet Efendi” kabi noyob qo'lyozma nusxalari ilmiy muomalaga kiritilib, ular o'rtasidagi matniy va tarkibiy tafovutlar qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, asardagi zullisonaylik (bilingvizm) hodisasi, badiiy tarjima xususiyatlari va XVI asr adabiy muhitining ta'siri yoritib berilgan.*

Аннотация: *В данной статье исследуется произведение «Наводирул амсол» представителя узбекской классической литературы XVI века Мирака Мухаммада Накибанди Ташканди с точки зрения источниковедения и текстологии. В ходе исследования в научный оборот были введены редкие рукописные экземпляры, хранящиеся в фондах Турции (такие как «Эсад Эфенди», «Мурад Бухари», «Халет Эфенди»), и проведен их сравнительный анализ на предмет текстовых и структурных различий. Также освещены феномен билингвизма (зуллисонайн) в произведении, особенности художественного перевода и влияние литературной среды XVI века.*

Abstract: *This article investigates the work "Navodirul Amsol" by Mirak Muhammad Naqshbandi Tashkandi, a representative of 16th-century Uzbek classical literature, from the perspectives of source study and textual criticism. During the research, rare manuscript copies preserved in Turkish archives (such as "Esad Efendi", "Murad Buhari", "Halet Efendi") were introduced into scientific circulation, and a comparative analysis of their textual and structural differences was conducted. Furthermore, the phenomenon of bilingualism, features of artistic translation, and the influence of the 16th-century literary environment are elucidated.*

Kalit so'zlar: *Mirak Muhammad Toshkandi, “Navodirul amsol”, manbashunoslik, matnshunoslik, qo'lyozma, matniy qiyos, zullisonaylik, paremiologiya, badiiy tarjima.*

Ключевые слова: *Мирак Мухаммад Ташканди, «Наводирул амсол», источниковедение, текстология, рукопись, текстовое сравнение, билингвизм, паремиология, художественный перевод.*

Keywords: *Mirak Muhammad Tashkandi, "Navodirul Amsol", source study, textual criticism, manuscript, textual comparison, bilingualism, paremiology, artistic translation.*

Kirish

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida XVI asr ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti alohida ahamiyatga ega. Bu davr nafaqat yirik davlatchilik tizimining mustahkamlanishi, balki adabiy janrlarning sinkretik rivojlanishi, xususan, badiiy-didaktik asarlarning yangi bosqichga ko'tarilishi bilan xarakterlanadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosati milliy filologiya oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Bu jarayonda faqat mashhur siymolar bilan cheklanmay, tarixiy o'tish davrlarida ijod qilgan, o'z davri badiiy tafakkurini o'ziga xos shaklda aks ettirgan mualliflar merosini qayta kashf etish dolzarbdir.

Ana shunday nodir manbalardan biri – Mirak Muhammad Naqshbandiy Toshkandiy qalamiga mansub “Navodirul amsol” asaridir. Ushbu tadqiqotning maqsadi mazkur asarni manbashunoslik va matnshunoslik nuqtayi nazaridan kompleks o'rganish, uning qo'lyozma nusxalarini qiyosiy tahlil qilish hamda muallifning adabiy-estetik qarashlarini ochib berishdan iborat. Tadqiqotning predmeti sifatida asarning matni, tuzilishi, poetik qatlamlari, til vositalari va intertekstual aloqalari belgilangan.

Asosiy qism

I. “Navodirul amsol” asarining manbashunoslik tavsifi va qo'lyozmalar geografiyasi

Mirak Muhammad Toshkandiyning “Navodirul amsol” asari XVI asr ikkinchi yarmida yaratilgan bo'lib, u o'z davri adabiy muhitining mahsuli sifatida baholanadi. Tadqiqot jarayonida asarning jahon kutubxonalari fondlarida saqlanayotgan bir nechta nusxalari aniqlandi va ilmiy muomalaga kiritildi. Asarning ilmiy-tanqidiy matnini yaratishda quyidagi tayanch qo'lyozmalarga asoslanildi:

1. **Murad Buhari-243 nusxasi:** Ushbu qo'lyozma hijriy 1103 (milodiy 1691-92) yilda ko'chirilgan bo'lib, nisbatan qadimiy va mo'tabar nusxalardan biri hisoblanadi. Matnning saqlanish holati yaxshi, sulus va nasx xatlari aralashmasida bitilgan.

2. **Esad Efendi-2743 nusxasi:** Hijriy 1160 (milodiy 1747) yilda kotib Muhammad Amin ibn Ali tomonidan ko'chirilgan. Bu nusxa o'zining xattotlik san'ati va matniy to'liqligi bilan ajralib turadi.

3. **Halet Efendi-821 nusxasi:** Asarning mazkur nusxasi (128-190-betlar oralig'i) matniy farqlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

4. **Lala Ismail-677 nusxasi:** Murod Mulla kutubxonasiga tegishli bo'lgan ushbu nusxa ham qiyosiy tahlil uchun jalb etildi.

5. **Serez-4017 va Bulac-Ms-Turc-3 nusxalari:** Ushbu manbalar asarning Turkiya va boshqa hududlarda keng tarqalganini hamda kotiblar tomonidan turli davrlarda ko'chirilganini ko'rsatadi.

Manbashunoslik tahlili shuni ko'rsatadiki, "Navodirul amsol" qo'lyozmalari faqat O'rta Osiyoda emas, balki Kichik Osiyo (Turkiya) hududlarida ham keng mutolaa qilingan. Bu esa asarning mintaqaviy chegaralardan chiqib, umumturkiy va umumforsiy madaniy merosning bir qismiga aylanganidan dalolat beradi.

II. Matniy-qiyosiy tadqiq: Tafvutlar va original matn muammosi

Tadqiqotning asosiy yangiligi asarning mavjud qo'lyozma va nashr variantlarini qiyosiy o'rganishda namoyon bo'ladi. Qo'lyozmalar ustida olib borilgan tekstologik kuzatishlar natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Tarkibiy tuzilmadagi farqlar:

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, Murad Buhari va Esad Efendi nusxalari o'rtasida asarning kirish qismi (muqaddima) va boblarga bo'linish tartibida ayrim tafvutlar mavjud. Masalan, qadimiyroq nusxalarda muallifning asl rejasiga muvofiq qat'iy tizim saqlangan bo'lsa, keyingi davr kotiblari (jumladan, Muhammad Amin ibn Ali) matnga izoh sifatida kiritilgan hoshiyalarni asosiy matnga singdirib yuborish holatlari kuzatiladi. Bu esa "Navodirul amsol"ning jonli, o'zgaruvchan matn sifatida yashaganini ko'rsatadi.

2. Leksik-semantik o'zgarishlar:

Matnshunoslik tahlili davomida aniqlandiki, turli hududlarda ko'chirilgan nusxalarda til xususiyatlariga oid farqlar mavjud. Ayrim nusxalarda arabiy va forsiy istilohlar ustuvorlik qilsa, boshqalarida (xususan, Bulac nusxalarida) ularning turkiy muqobillariga almashtirilishi yoki turkiy tildagi sharhlarning kengaytirilishi kuzatiladi. Bu holat XVI-XVIII asrlardagi adabiy til me'yorlarining evolyutsiyasini kuzatish imkonini beradi.

3. She'riy parchalar variativligi:

Ma'lumki, "Navodirul amsol" janr jihatidan nasr va nazm aralash yozilgan asardir. Muallif o'z fikrini quvvatlash uchun keltirgan forsiy baytlar (Sa'diy, Jomiy, Hofiz va boshqalardan iqtiboslar) turli qo'lyozmalarda turlicha berilgan. Ba'zi nusxalarda baytlar to'liq g'azal shaklida keltirilgan bo'lsa, boshqalarida faqat "shohid bayt" (matla yoki maqta) bilan cheklanilgan. Bu tafvutlarni aniqlash asarning tanqidiy matnini tuzishda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

III. Asarning badiiy xususiyatlari va intertekstual aloqalar

Mirak Toshkandiyning "Navodirul amsol" asari shunchaki maqollar to'plami emas, balki murakkab kompozitsion qurilishga ega badiiy obidadir. Asarning janrlararo pozitsiyasi uning badiiy-didaktik, falsafiy va paremiologik xususiyatlarini o'zida jamlagani bilan belgilanadi.

1. Zullisonaylik (Bilingvizm) fenomeni:

Asar matni XVI asr Movarounnahr adabiy muhitiga xos bo'lgan zullisonaylik an'anasining yorqin namunasidir. Muallif forsiy nazm namunalarini keltirib, ularga turkiy nasrda sharh beradi. Bu o'rinda Mirak Toshkandiy tarjimon sifatida emas, balki "sharhlovchi ijodkor" (interpretator) sifatida namoyon bo'ladi. U fors tilidagi original baytning mazmunini turkiy o'quvchiga yetkazishda so'zma-so'z tarjimadan voz kechib,

ma'no tarjimasini va badiiy rekonstruksiya usulini qo'llaydi. Bu jihat o'zbek tarjimachilik maktabi tarixini o'rganishda qimmatli manba hisoblanadi.

2. Intertekstual aloqalar:

Matnda keltirilgan maqol va hikmatlar Sharq mumtoz adabiyotining boy an'analari bilan uzviy bog'liqdir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Mirak Toshkandiy "Navodirul amsol"ni yozishda "Kalila va Dimna", "Guliston" kabi klassik asarlardan ta'sirlangan. Biroq, u an'anaviy syujetlarni ko'r-ko'rona takrorlamay, ularni milliy va mahalliy (Toshkent) adabiy muhitiga moslashtirgan. Asardagi hikmatlarning ichki ifoda tizimi matnga yotlashtirilmagan holda, o'zbek adabiy tilining tabiatiga singdirilgan.

Xulosa

Mirak Muhammad Naqshbandiy Toshkandiyning "Navodirul amsol" asari ustida olib borilgan manbashunoslik va matnshunoslik tadqiqotlari quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi:

1. **Manbaviy baza:** Asarning Turkiya fondlarida saqlanayotgan "Esad Efendi", "Murad Buhari" va boshqa qo'lyozma nusxalari ilk bor qiyosiy tadqiqotga jalb etildi. Nusxalarning ko'chirilish sanasi va geografiyasi asarning XVI-XVIII asrlarda keng arealda mashhur bo'lganini tasdiqlaydi.

2. **Matniy rekonstruksiya:** Qo'lyozmalar o'rtasidagi tafovutlar (leksik, tuzilmaviy va hajm jihatidan) asarning yagona, qat'iy kanonik matni mavjud bo'lmaganini, balki u "tirik matn" sifatida doimiy tahrir va to'ldirishlar jarayonida bo'lganini ko'rsatadi.

3. **Ilmiy yangilik:** "Navodirul amsol" o'zbek adabiyotida paremiologik janrning o'ziga xos namunasi bo'lib, unda hikmat, maqol, she'r va sharh uyg'unligi yuksak badiiy saviyada amalga oshirilgan. Asarning matniy tadqiqi o'zbek mumtoz adabiyoti tarixidagi kamlarni to'ldirishga va Mirak Toshkandiyning ijodiy biografiyasini tiklashga xizmat qiladi.

4. **Amaliy ahamiyat:** Tadqiqot natijalaridan oliy ta'lim tizimida manbashunoslik, matnshunoslik fanlarini o'qitishda hamda o'zbek adabiyoti tarixi darsliklarini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2995-sonli qarori. "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" / Xalq so'zi. – 2017, 25-may.

2. G. Flügel, Die arabischen, persischen und türkischen Handschriften der k.k. Hofbibliothek (Vena, 1865) – Asarning Vena nusxasi.

3. Yerdemir, Şerife. Hâlis İbrâhîm Efendi va Mecma'u'l-Emsâl'i. Doktorlik dissertatsiyasi. Kırıkkale Universiteti, 2022.

4. Mirak Muhammad Toshkandiy. Navodir ul-Amsol. – Istanbul.: Lalaliy to'plami, № 891.5, guruh: 01670-001, fehrist № 299664, nusxa sanasi: 1304 h.

5. Mirak Muhammad Toshkandiy. Navodir ul-Amsol. Asarning Serez3822 raqamli nusxasi. – Istanbul.: Sulaymoniya kutubxonasi. Nusxa sanasi: 1658.

